



MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNI INTEGRATSIYALASH

Turakulova Feruza Aminovna

Qo`qon davlat universiteti

Pedagogika kafedrası v.b. dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni integratsiyalashning pedagogik mexanizmlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarning bolalar shaxsini shakllantirishdagi o'rnini, ularni ta'lim jarayoniga singdirishning samarali yo'llari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida amalga oshirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijasida milliy qadriyatlarni integratsiyalash bolalarda ijtimoiy, axloqiy va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, milliy qadriyatlar, integratsiya, pedagogik mexanizm, tarbiya, innovatsiya, madaniy meros.

Аннотация: В статье подробно анализируются педагогические механизмы интеграции национальных ценностей в систему дошкольного образования. Рассматриваются эффективные методы внедрения национальных традиций в образовательный процесс, а также их влияние на формирование личности ребенка.

Ключевые слова: дошкольное образование, национальные ценности, педагогика, интеграция, воспитание.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of pedagogical mechanisms for integrating national values into preschool education. It discusses effective methods and their impact on children's personal and social development.

Keywords: preschool education, national values, integration, pedagogy, development.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning boshlang'ich bosqichi sifatida jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Aynan shu davrda bola shaxsining asosiy psixologik va ijtimoiy xususiyatlari shakllanadi. Shu sababli bu bosqichda berilgan tarbiya mazmuni alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tizimi 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan davrdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan

Maktabgacha ta'lim tizimi bolaning shaxs sifatida shakllanishini, maktabga tayyorlanishini va sog'lom o'sishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularning qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirishdan iborat bo'lib, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT), jumladan bog'chalar, majburiy bir yillik tayyorlov guruhlarini tarkibidan iborat. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari-bu bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash, nutqini o'stirish, ijodiy qobiliyatlarini va mantiqiy fikrlashini

rivojlantirishdan iborat bo`lib, bugungi kunda "Ilk qadam" davlat dasturi asosida o'yin orqali ta'lim berish, bola shaxsiga yo'naltirilgan pedagogika asosida zamonaviy yondashuvga asoslanadi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi davlat nazoratida bo'lib, 2030-yilgacha bo'lgan rivojlantirish konsepsiyasi asosida bolalarni MTTga qamrab olish darajasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda

Globalashuv sharoitida turli madaniyatlarning o'zaro aralashuvi kuchayib borayotgan bir vaqtda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlarni integratsiyalash orqali bolalarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, madaniy hurmat kabi sifatlarni shakllantirish mumkin.

Milliy qadriyatlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ma'naviy boyliklar majmuasidir. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- urf-odatlar va an'analar. O'zbek milliy urf-odatlari va an'analari ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, xalqning o'ziga xos qiyofasi, madaniyati, mehmondo'stligi va oilaviy qadriyatlarini aks ettiradi. Beshik to'yi, nahor oshlari, keline salom, navro'z sayillari, yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan kattalarni hurmat qilish kabi an'analar millatning ma'naviy boyligidir.

- xalq og'zaki ijodi. O'zbek xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati bo'lib, an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi, ya'ni folklor, xalq musiqasi, xalq teatri, xalq o'yinlari, qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari, xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari.

- milliy san'at va hunarmandchilik. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning quyidagi 3 turi shakllangan:

- 1) uy hunarmandchiligi;

- 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik;

- 3) [bozor](#) uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.

- axloqiy me'yorlar va qadriyatlar tizimi. O'zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish eng avvalo odamlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etadi.

Mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy immunitetning qanchalar darajada zarur ekanligiga alohida e'tibor berib quyidagilarni yozadi: “Bugungi shiddatli, o'ta murakkab zamon shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada faqat ta'lim-tarbiya tizimining o'zi mavjud ma'naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki bugungi kunda bolalarimizni ota-ona, bog'cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo'lidagi telefon “tarbiyalamoqda”. Afsuski, ana shu kichkinagina telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani targ'ib etadigan katta qurolga, zo'ravonlik, yovuzlik “virusi”ni tarqatadigan manbaga aylanmoqda”¹.

¹ Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezigulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. -Toshkent, 2021. -9-bet.

Milliy qadriyatlarning asosiy vazifasi — jamiyatda ma’naviy birlikni ta’minlash va yosh avlodni to’g’ri yo’nalishda tarbiyalashdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining quyidagi psixologik xususiyatlari mavjud:

- taqlid orqali o’rganish kuchli rivojlangan;
- hissiy qabul qilish ustunlik qiladi;
- o’yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi;
- obrazli tafakkur rivojlangan bo’ladi.

Shu sababli milliy qadriyatlarni o’rgatishda vizual, emotsional va amaliy metodlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

Integratsiya — bu turli elementlarni yagona tizimga birlashtirish jarayonidir. Ta’limda integratsiya bilimlar o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni ta’minlaydi.

Milliy qadriyatlarni integratsiyalash quyidagi darajalarda amalga oshiriladi:

1. Mazmuniy integratsiya
2. Faoliyat integratsiyasi
3. Tarbiyaviy integratsiya

Milliy qadriyatlarni integratsiyalash quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

- tizimlilik;
- izchillik;
- yoshga moslik;
- milliylik va umuminsoniylik uyg’unligi;
- faoliyatga yo’naltirilganlik.

Milliy qadriyatlarni integratsiyalashning asosiy yo’nalishlari:

1. Ta’lim jarayonida

Mashg’ulotlar mazmuniga milliy elementlarni kiritish orqali amalga oshiriladi.

2. Tarbiyaviy ishlar orqali

Kun tartibi, odob-axloq qoidalari orqali bolalarga qadriyatlar singdiriladi. Bolalarni sog’lom turmush tarzini yuritishga o’rgatish, gimnastika va faol o’yinlar bo’yicha mashg’ulotlar o’tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg’ulotlari va sportga qiziqish uyg’otishni shakllantirish, jismonan sog’lom o’sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash nazarda tutiladi.

3. O’yin faoliyati orqali

Milliy o’yinlar bolalarning qiziqishini oshiradi va samaradorlikni ta’minlaydi. Zero, o’zbek xalq milliy o’yinlari o’zining uzoq o’tmishi, boy tarixiga ega bo’lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o’tib kelayotgan, ma’naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, milliy qadriyatlarimiz, an’ana-yu udumlarimiz, shu jumladan, xalq o’yinlarini qayta tiklanishiga katta e’tibor qaratilgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak, otabobolarimiz azal-azaldan insonni jismonan chiniqtiruvchi, salomatlikka ijobiy ta’sir etuvchi mashqlarga jiddiy e’tibor qaratishganini ko’ramiz. Masalan, ko’pkari musobaqasi har bir ishtirokchidan chavandozlik mahoratidan tashqari jismoniy kuch, o’tkir zehn va yetti o’lchab bir kesish salohiyatiga ega bo’lishni talab qiladi. Ajdodlarimiz shunga mos ravishda tayyorgarlik ko’rib, ham ruhiy, ham jismoniy o’sishga erishganlar.

Maktabgacha ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni integratsiyalashda zamonaviy yondashuvlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- interfaol metodlar. Maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdir. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ilg‘or o‘qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishi ta’minlanmoqda.

- multimedia vositalari. Multimedia – ko‘pvositalilik mazmuniga ega bo‘lib, bu insonga o‘zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo‘lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

- STEAM texnologiyasi; maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o‘qitish asoslarini joriy etish;


- loyiha asosida o‘qitish. Bu bolalarning real muammolarni tadqiq etish, loyihalash va yechish orqali bilim va ko‘nikmalarni faol shakllantiradigan zamonaviy ta’lim metodidir. Ushbu uslub bolalarning mustaqilligi, ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi va hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni integratsiyalashning amaliy tajribalarida quyidagi faoliyatlar samarali hisoblanadi:

- “Milliy liboslar kuni”;
- “Xalq ertaklari haftaligi”;
- hunarmandchilik mashg‘ulotlari;
- sahnalashtirilgan o‘yinlar.

Maktabgacha ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni integratsiyalashda pedagog va ota-onalar hamkorligi milliy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Oila va bog‘cha hamkorligi orqali tarbiya samaradorligi oshadi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida milliy qadriyatlarni integratsiyalashda quyidagi muammolar, yechimlar va natijalar oz aksini topmoqda:



Xulosa

Milliy qadriyatlarni maktabgacha ta'limga integratsiyalash — bu strategik ahamiyatga ega pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali barkamol, ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. -Toshkent, 2021. -9-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2022